



2018 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda 1026,4 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 201,3% ni tashkil etib, 67,2 %i jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korhona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 32,8%i moliyalashtirildi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan

Respublika byudjeti:
14,0 mlrd.so'm

Davlat maqsadli jamg'armalari:
35,7 mlrd.so'm

Oz'R kafolati ostida xorijiy kreditlar:
64,3 mlrd.so'm

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi:
198,0 mlrd.so'm

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan

Aholi mablag'i:
108,2 mlrd.so'm

Korhona mablag'i:
227,9 mlrd.so'm

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:
349,7 mlrd.so'm


To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
28,6mlrd.so'm

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalar ning 34,0 %i tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 19,3 %, aholi mablag'i 10,5 %, korhona mablag'I 22,2 %, O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar 6,3 %, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 2,8 %, Respublika byudjeti 1,4 % va Davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan 3,5 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

(jami hajmdagi ulushi, %da)




Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish suratlari




Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish surati 21,7 martta ko'payish Sherobod tumanida kuzatilib ushbu hududdagi yirik investitsiya loyihalaridan sement zavodining qurilishini keltirish mumkin.

Tumanlarning viloyatdagi ulushi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 638,5 mlrd.so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 330,8 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 57,1 mlrd.so'm o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy davrda ham asosiy kapitalga investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 588,5 mlrd.so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 76,8 %ini tashkil etdi. Iqtisodiyotda mavjud ob'ektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta quollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 189,6 mlrd.so'mni tashkil etdi, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 18,5 %ini va qolgan 4,7 %, yani 48,3 mlrd.so'm boshqa harajatlarga yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyatturlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 571,9 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 55,7 %i o'zlashtirilgan. Turar joy qurilishida 155,0 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 15,1 %i, ushbu sohalarga o'zlashtirilgan investitsiyalar boshqa tarmoqqa nisbatan yuqoriligini ko'rish mumkin.


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Xorijiy investitsiya va kreditlar	2018 yil yanvar-mart	Ulushi %
	mlrd.so'm	
jami	92,9	100,0
shu jumladan:		
hukumat kafolati ostidagi	64,3	69,2
to'g'ridan-to'g'ri	27,5	29,6
boshqalar	1,1	1,2

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibida eng yuqori 69,2 % ulushi hukumat kafolati ostida kiritilgan investitsiyaga to'gri kelmoqda. Bundan tashqari to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 27,5 mlrd.so'mni jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmining 29,6 % ulushni ko'rish mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

jamiga nisbatan %da



Obyektlarni ishga tushirish

Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiylar maydoni 141,7 ming kv.m, bo'lgan 1043 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo'lib, ulardan umumiylar maydoni 90,0 ming kv.m, bo'lgan 810 tasi qishloq joylarda joylashgan. Namunaviy loyihalar asosida umumiylar maydoni 0,6 kv.m, bo'lgan 5 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushurildi.